Shu bilan birga, Buyuk Britaniyalik tadqiqotchi De la Salle va hammualliflar STB tizimlarida metodlarning xilma-xilligi, referens qiymatlarning yetishmasligi hamda natijalarni noto'g'ri talqin qilish kabi muammolar mavjudligini qayd etadilar [6]. Kelajakda esa raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining joriy etilishi STB samaradorligini yanada oshirishi kutilmoqda [10].

Sifat menejmenti va nazorat tizimlari bilan bir qatorda, biologik materiallar, xususan mikroorganizm shtammlarini uzoq muddat saqlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Mikroorganizm shtammlarini saqlash jarayonida hujayralarning hayotchanligi, genetik barqarorligi va funksional xususiyatlarini saqlab qolish asosiy muammolardan biridir. Hozirgi kunda eng samarali saqlash usullaridan biri liofilizatsiya (muzlatib quritish) bo'lib, u mikroorganizmlarning turg'unligini ta'minlashda keng qo'llaniladi [7].

Liofilizatsiya jarayoni uch asosiy bosqichdan iborat: muzlatish, birlamchi quritish va ikkilamchi quritish. Germaniya hamda Ispaniyada olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, aynan muzlatish bosqichi mahsulot sifati va butun jarayon samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [4]. Xitoyning (Shanghai) Shanxay shahridagi Uiversitetda o'tkazilgan izlaishlar davomida turli *Lactobacillus plantarum* shtammlarida muzlatish haroratining tiriklik darajasiga sezilarli ta'siri

mavjudligini aniqlaganlar. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, past haroratlarda tez muzlatish ayrim shtammlar uchun ijobiy natija bersa, boshqa shtammlar uchun stress omili bo‘lishi mumkin [11].

Tadqiqot maqsadi: Sifatni tashqi baholash panelini yaratish uchun *Pseudomonas aeruginosa* ning turg‘unlik xususiyatlarini o‘rganish.

Materiallar va usullar: Tadqiqot ishi CDC hamda Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi o‘rtasidagi hamkorlik shartnomasiga asosan № 5 NU2HGH000089-04-00 “O‘zbekiston Respublikasida mikroblarga qarshi dori vositalarga chidamlilik muammosiga qarshi kurashish bo‘yicha epidemiologik nazorat tarmog‘ini kengaytirish” nomli loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Shtammi *P. aeruginosa* shtammlarini mikrobgga qarshi preparatlarga sezuvchanligi RIEMYUPKIATM antimikrob rezistentlik markazi referens-laboratoriyasida identifikatsiya qilindi va o‘rganildi. Shtammlarni identifikatsiya qilish BD Phoenix (AQSh) bakteriologik analizatorining NID (REF) -448008 panellari yordamida amalga oshirildi.

Mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlik va test natijalarining intepretatsiyasi ikki xil usulda olib borildi: disk-diffuziya usuli Yevropa qo‘mitasining mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlikni aniqlash bo‘yicha qo‘llanmasiga (EUCAST 2023 y.) asoslanib amalga oshirildi. Liofilchelm, Italiyada ishlab chiqarilgan 10 ta antibakterial dori vositasiga nisbatan: Amikacin (AK30), Gentamicin (CN10) ciprofloksatsin (CIP), levofloksatsin (LVX), Imipenem (IMI10), Meropenem (MRP10), Cefepime (FEP30), Ceftazidime (CAZ10), Piperacillin (PIP30), Piperacillin/tazobactam (TZP36) larga barcha shtammlarning sezgirligi aniqlandi. Shuningdek, *P. aeruginosa* uchun mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlik testlari parallel ravishda BD Phoenix (AQSh) bakteriologik analizatorining NMIC-600 (REF)-449055 panellari yordamida o‘rganildi. O‘tkazilgan tadqiqotlarning sifat nazorati uchun *Pseudomonas aeruginosa* NCTC 12934 referent shtammlari ishlatildi. Olingan sezgirlik natijalari WHONET va Microsoft Excel dasturlari yordamida tahlil qilindi.

Liofilli quritish bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olgan INFITEK LYO60B-1S apparatida amalga oshirildi. LYO60B-1S sublimatsion quritgich haddan tashqari past haroratda (-60°S) ishlaydi hamda vakuumi mikroorganizmlardan namlikni olib tashlash uchun foydalaniladi. Liofillizatsiya 10 ml hajmdagi silliq og‘izli penitsillin flakonlarida amalga oshirildi. Liofillizatsiya jarayoni: birinchi bosqichda minus 60°C li haroratda biomateriallar muzlatiladi. Ikkinchi bosqichda boshlang‘ich quritish amalga oshiriladi, bu vaqtda muzlatilgan erkin namlik vakuum va issiqlik ta’siri ostida sublimatsiya qilinadi. Uchinchi bosqich – mahsulotning yakuniy quritilishi bo‘lib, bu jarayonda qolgan namlik chiqarib tashlanadi. Liofil jarayoni 18-22 soat davom etadi.

Natijalar: STB paneli uchun biz, *P. aeruginosa* 29 ta shtammlar va bitta nazorat—*Pseudomonas aeruginosa* NCTC 12934 shtammini kiritdik. Ularning mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlik-rezistentlik xususiyatlari o‘rganildi. Barcha shtammlar *P. aeruginosa* sifatida identifikatsiya qilindi.

P. aeruginosa shtammlarining mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlik-rezistentlik turg‘unlik xususiyatlarini o‘rganish uchun, boshlang‘ich bosqichda (-80°C) haroratda muzlatilgan holda saqlangan shtammlar tahlil qilindi. Har bir shtamm liofilli quritishdan oldin besh marotaba takroriy tekshirildi (2 oy, 3 oy, 6 oy va 1-yil davomida), shuningdek, liofil quritishdan so‘ng 1, 3 va 6 oy o‘tgach qayta tekshirildi hamda baholandi. Shtammlarning mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlik-rezistentlik xususiyatlarining turg‘unligi bo‘yicha tahlil qilindi.

Oldingi mikroorganizmlar shtammlariga o‘xshash tarzda, tahlilning birinchi bosqichida *P. aeruginosa* shtammlarining sezuvchanlik–rezistentlik natijalari barqarorligi taqqoslandi. Shtammlarning mikroblarga qarshi dori vositalariga nisbatan lizis zonasi diapazonining o‘rtacha qiymatlari (mm) hisoblab chiqildi (jadval 1).

Jadval 1.

***P. aeruginosa* shtammlarining mikroblarga qarshi dori vositalariga nisbatan lizis diapazonining o‘rtacha ko‘rsatkichi (mm).**

Antibiotik nomlari	Saqlash muddati	Mean, MM	CV, %	95% CI, mm
Amikacin (AK30)	2 oydan keyin	20,4	5,9	19,9–20,9

	3 oydan keyin	21,6	5,1	21,2–22,0
	6 oydan keyin	20,9	5,3	20,5–21,3
	12 oydan keyin	21,5	6,0	21,0–22,0
Gentamicin (CN10)	2 oydan keyin	17,1	6,4	16,7–17,5
	3 oydan keyin	17,5	5,7	17,1–17,9
	6 oydan keyin	17,4	5,7	17,0–17,8
	12 oydan keyin	17,5	6,9	17,0–18,0
Ciprofloxacin (CIP5)	2 oydan keyin	28,5	7,4	27,7–29,3
	3 oydan keyin	28,6	7,0	27,9–29,3
	6 oydan keyin	26,7	6,7	26,0–27,4
	12 oydan keyin	27,8	7,9	27,0–28,6
Levofloxacin (LEV5)	2 oydan keyin	21,7	7,4	21,1–22,3
	3 oydan keyin	22,1	7,2	21,5–22,7
	6 oydan keyin	20,3	6,9	19,8–20,8
	12 oydan keyin	20,8	8,7	20,1–21,5
Imipenem (IMI10)	2 oydan keyin	22,6	7,5	22,0–23,2
	3 oydan keyin	21,9	8,7	21,2–22,6
	6 oydan keyin	22,6	8,0	21,9–23,3
	12 oydan keyin	24,4	7,0	23,8–25,0
Meropenem (MRP10)	2 oydan keyin	27,4	8,0	26,6–28,2
	3 oydan keyin	26,8	8,2	26,0–27,6
	6 oydan keyin	25,2	9,1	24,3–26,1
	12 oydan keyin	28,6	7,3	27,8–29,4
Cefepime (FEP30)	2 oydan keyin	11,1	13,5	10,5–11,7
	3 oydan keyin	15,5	8,4	15,0–16,0
	6 oydan keyin	15,7	8,9	15,2–16,2
	12 oydan keyin	10,7	14,0	10,1–11,3
Ceftazidime (CAZ10)	2 oydan keyin	17,3	8,7	16,7–17,9
	3 oydan keyin	19,2	6,8	18,7–19,7
	6 oydan keyin	18,3	7,1	17,8–18,8
	12 oydan keyin	16,6	9,0	16,0–17,2
Piperacillin (PIP30)	2 oydan keyin	21,6	6,9	21,0–22,2
	3 oydan keyin	21,6	6,9	21,0–22,2
	6 oydan keyin	20,7	6,3	20,2–21,2
	12 oydan keyin	20,3	7,9	19,7–20,9
Piperacillin/tazobactam (TZP36)	2 oydan keyin	20,4	7,4	19,8–21,0
	3 oydan keyin	20,6	6,3	20,1–21,1
	6 oydan keyin	20,2	5,9	19,7–20,7
	12 oydan keyin	18,8	8,0	18,2–19,4

Eslatma: Ma'lumotlar o'rtacha qiymat (Mean) ± standart og'ish ko'rinishida taqdim etilgan. Variatsiya koeffitsiyenti (CV, %) quyidagi formula bo'yicha hisoblandi: $CV = SD/Mean \times 100$. 95 % ishonch oralig'i (95% CI) quyidagi formula asosida hisoblandi: $Mean \pm t \times SD/\sqrt{n}$ ($t = 2,048$; $df = 28$).

1-jadvalda *P. aeruginosa* shtammlarining ($n = 29$) mikroblarga qarshi dori vositalarga sezuvchanligini aniqlash jarayonida lizis zonalari diametrlari bo'yicha olingan ma'lumotlarning statistik qayta ishlash natijalari keltirilgan. Nazorat shtammlari turli saqlash muddatlarida (2, 3, 6 va 12 oy) baholangan. Har bir preparat uchun lizis zonalari diametrlarining o'rtacha qiymatlari (Mean), variatsiya koeffitsiyenti (CV, %) va 95 % ishonch oralig'i (95% CI) hisoblab chiqilgan bo'lib, bu mikroorganizmlarning sezuvchanlik ko'rsatkichlari turg'unligi hamda laboratoriya o'lchovlarining vaqt davomida takrorlanuvchanligini baholash imkonini beradi.

O‘rtacha qiymatlarni tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mikroblarga qarshi dori vositalarning aksariyati — Amikacin (AK30), Gentamicin (CN10), Ciprofloxacin (CIP5) va Levofloxacin (LEV5) uchun lizis zonalarini diametrlari barcha kuzatuv muddatlarida nisbatan turg‘un bo‘lib qolgan va ularning kamayishi yoki oshishiga aniq moyillik aniqlanmagan. 95 % ishonch oralig‘ining torligi hamda saqlash muddatlari bo‘yicha o‘zaro mos kelishi o‘rtacha qiymatlar orasida vaqt davomida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar yo‘qligini ko‘rsatadi.

Ko‘pchilik preparatlar uchun variatsiya koeffitsiyenti 10 % dan oshmaydi, bu esa guruh ichidagi o‘zgaruvchanlikning pastligini va usulning yuqori darajadagi takrorlanuvchanligini tasdiqlaydi. Karbapenemlar — Imipenem (IMI10) va Meropenem (MRP10) uchun ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajada o‘zgaruvchanligi, ayniqsa saqlashning 12-oyida o‘rtacha qiymatlarning biroz tebranishi qayd etilgan. Shunga qaramay, CV qiymatlari ruxsat etilgan chegaralarda qolib, o‘lchovlar barqarorligining pasayganidan dalolat bermaydi. Eng sezilarli o‘zgaruvchanlik sefalosporinlar guruhida, xususan Cefepime (FEP30) uchun kuzatildi, bunda ayrim kuzatuv muddatlarida CV qiymatlari 13–14 % ga teng bo‘ldi. Bu o‘lchov natijalarining saqlash sharoitlariga hamda shtammlarning biologik o‘zgaruvchanligiga yuqori sezgirlikni ko‘rsatadi. Shunga qaramay, ushbu holatlarda ham o‘rtacha qiymatlarning ishonch oralig‘lari o‘zaro bir-biriga mos keladi, saqlash muddatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar yo‘qligini tasdiqlaydi.

Penitsillinlar guruhi va ularning kombinatsiyalari uchun (Piperacillin (PIP30), Piperacillin/tazobactam (TZP36) lizis zonalarining o‘rtacha diametr qiymatlari 12-oylik saqlash davrida biroz pasayish tendensiyasini ko‘rsatadi va bu holat variatsiya koeffitsiyentining (CV) o‘rtacha darajada oshishi bilan birga kechadi. Biroq, olingan o‘zgaruvchanlik qiymatlari umumiy qabul qilingan ruxsat etilgan chegaralardan oshmaydi va sezgirlikni aniqlash natijalarini talqin qilishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar *P. aeruginosa* ning mikroblarga qarshi dori vositalarga sezuvchanligini disk-diffuzion usulda aniqlash 12 oy davomida nazorat shtammlarini saqlash sharoitida yuqori darajadagi barqarorlik va takrorlanuvchanlikka ega ekanligini ko‘rsatadi, aniqlangan ko‘rsatkichlar tebranishlari esa statistik jihatdan ahamiyatsiz xarakterga ega.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, tekshirilgan mikroblarga qarshi dori vositalarga aksariyati uchun variatsiya koeffitsiyenti 10 % dan oshmaydi, bu esa laboratoriya o‘lchovlarining yaxshi takrorlanuvchanlik mezonlariga mos keladi. Lizis zonalarini diametrlari o‘rtacha qiymatlarining ishonch oralig‘lari saqlash muddatlari bo‘yicha o‘zaro mos keladi, bu esa kuzatuv dinamikasida natijalar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar yo‘qligidan dalolat beradi. Cefepime (FEP30) va Ceftazidime (CAZ10) kabi ayrim preparatlar uchun o‘zgarishlarning biroz oshishi ruxsat etilgan chegaralardan chiqmaydi va sezuvchanlikni baholashga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydi. Umuman olganda, olingan ma‘lumotlar *P. aeruginosa* ning mikroblarga qarshi dori vositalarga sezuvchanligini aniqlash usulining 12 oy davomida barqarorligi va ishonchligini tasdiqlaydi. Keyingi bosqichda saqlash muddati ta‘sirida *P. aeruginosa* shtammlarining sezuvchanlik–rezistentlik ko‘rsatkichlarida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjudligini tekshirish maqsadida tahlil o‘tkazildi hamda 95 % ishonch oralig‘ini aniqlash bilan bog‘liq tahlil amalga oshirildi (2-jadval).

Jadval 2.

***P. aeruginosa* shtammlarining turg‘unlik xususiyatlarini baholash uchun mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlik testi natijalarini disk-diffuziya usulida tahlil qilish**

Antibiotik nomlari	Saqlash muddati	Mean	CV, %	95% CI
Amikacin (AK30)	2 oydan keyin	13,8	45,7	11,4–16,2
	3 oydan keyin	10,3	52,4	8,2–12,4
	6 oydan keyin	10,3	52,4	8,2–12,4
	12 oydan keyin	14,3	46,2	11,8–16,8
Gentamicin (CN10)	2 oydan keyin	20,7	36,2	17,8–23,6
	3 oydan keyin	17,2	40,1	14,6–19,8
	6 oydan keyin	17,2	40,1	14,6–19,8

	12 oydan keyin	25,0	32,8	21,9–28,1
Ciprofloxacin (CIP5)	2 oydan keyin	20,7	33,8	18,0–23,4
	3 oydan keyin	17,2	37,2	14,8–19,6
	6 oydan keyin	17,2	37,2	14,8–19,6
	12 oydan keyin	25,0	32,8	21,9–28,1
Levofloxacin (LEV5)	2 oydan keyin	31,0	29,7	27,5–34,5
	3 oydan keyin	31,0	28,4	27,7–34,3
	6 oydan keyin	31,0	29,0	27,6–34,4
	12 oydan keyin	35,7	25,5	32,2–39,2
Imipenem (IMI10)	2 oydan keyin	20,7	36,2	17,8–23,6
	3 oydan keyin	27,6	31,5	24,3–30,9
	6 oydan keyin	24,1	32,8	21,1–27,1
	12 oydan keyin	17,9	40,2	15,2–20,6
Meropenem (MRP10)	2 oydan keyin	20,7	34,8	18,0–23,4
	3 oydan keyin	20,7	36,2	17,8–23,6
	6 oydan keyin	24,1	33,6	21,0–27,2
	12 oydan keyin	17,9	40,2	15,2–20,6
Cefepime (FEP30)	2 oydan keyin	75,9	17,3	70,9–80,9
	3 oydan keyin	75,9	19,0	70,4–81,4
	6 oydan keyin	55,2	20,8	50,8–59,6
	12 oydan keyin	78,6	9,9	75,6–81,6
Ceftazidime (CAZ10)	2 oydan keyin	34,5	28,7	30,7–38,3
	3 oydan keyin	24,1	33,6	21,0–27,2
	6 oydan keyin	24,1	34,4	20,9–27,3
	12 oydan keyin	39,3	23,4	35,8–42,8
Piperacillin (PIP30)	2 oydan keyin	20,7	37,2	17,8–23,6
	3 oydan keyin	24,1	33,6	21,0–27,2
	6 oydan keyin	20,7	37,2	17,8–23,6
	12 oydan keyin	25,0	32,8	21,9–28,1
Piperacillin/tazobactam (TZP36)	2 oydan keyin	20,7	40,6	17,5–23,9
	3 oydan keyin	20,7	40,6	17,5–23,9
	6 oydan keyin	17,2	44,8	14,3–20,1
	12 oydan keyin	25,0	32,8	21,9–28,1

Eslatma: Ma'lumotlar o'rtacha qiymat (Mean) ± standart og'ish ko'rinishida taqdim etilgan. Variatsiya koeffitsiyenti (CV, %) quyidagi formula bo'yicha hisoblandi: $CV = SD/Mean \times 100$. 95 % ishonch oralig'i (95% CI) quyidagi formula asosida hisoblandi: $Mean \pm t \times SD/\sqrt{n}$ ($t = 2,048$; $df = 28$).

O'rtacha qiymatlarni tahlil kuzatuv dinamikasida ko'pchilik mikroblarga qarshi vositalar uchun sezuvchanlik ko'rsatkichlarining oshishi yoki pasayishi uchun bir tomonlama tendentsiyaning yo'qligini ko'rsatadi. O'rtacha qiymatlarning tebranishlari notekis xarakterga ega bo'lib, ishonch oralig'lari doirasidan chiqmaydi, bu esa saqlash muddatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar yo'qligini anglatadi. Bu holat, ayniqsa, aminoglikozidlar — Amikacin (AK30) va Gentamicin (CN10), shuningdek ftorxinolonlar — Ciprofloxacin (CIP5) va Levofloxacin (LEV5) uchun yaqqol namoyon bo'lib, barcha tadqiqot bosqichlarida o'rtacha qiymatlar o'zaro taqqoslanadigan diapazonlarda saqlanib qolgan.

Ko'pchilik preparatlar uchun variatsiya koeffitsiyenti 30 % dan yuqori bo'lib, bu tekshirilayotgan *P. aeruginosa* shtammlarida rezistentlik ko'rsatkichlarining yaqqol biologik variabelligidan dalolat beradi. Amikacin (AK30) va Piperacillin/tazobactam (TZP36) uchun eng yuqori CV qiymatlari qayd etilgan, bu shtamlarning ushbu mikroblarga qarshi dori vositalarga bo'lgan javob reaksiyasining bir tekis emasligini aks ettiradi. Shu bilan birga, Cefepime (FEP30)

uchun variatsiya koeffitsiyenti ancha past bo‘lib, ayniqsa saqlashning 12-oyiga kelib bu holat yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi, bu esa mazkur preparat bo‘yicha rezistentlik ko‘rsatkichlarining nisbatan bir xil taqsimlanganligini ko‘rsatadi.

95 % ishonch oralig‘larini tahlil qilish barcha o‘rganilgan mikroblarga qarshi dori vositalar uchun o‘rtacha qiymatlarning ishonch oralig‘lari saqlash muddatlari bo‘yicha o‘z-aro mos kelishini ko‘rsatdi. Bu, yuqori variatsiya koeffitsiyentlariga qaramay, kuzatuvning butun davri davomida rezistentlik ko‘rsatkichlarida statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar mavjud emasligini tasdiqlaydi. Tadqiqotimizda izlanishlar davomida ayrim preparatlar, masalan Cefepime (FEP30) va Ceftazidime (CAZ10) uchun o‘rtacha qiymatlarda nisbiy o‘zgarishlar kuzatilgan hollarda ham, ishonch oralig‘larining kengligi natijalarning statistik jihatdan taqqoslanadigan darajada qolayotganligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, jadval ma‘lumotlari *P. aeruginosa* shtammlarida rezistentlik ko‘rsatkichlarining yuqori o‘zgaruvchanligi asosan tekshirilayotgan populyatsiyaning biologik xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligini, analitik usul barqarorligining pasayishi bilan emasligini ko‘rsatadi. Disk-diffuzion usul nazorat shtammlarini kamida 12 oy davomida saqlash sharoitida *P. aeruginosa* ning mikroblarga qarshi dori vositalarga rezistentligini aniqlashda takrorlanuvchan va ishonchli natijalarni ta‘minlaydi, bu esa kuzatuv muddatlari bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar orasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmaganligi bilan tasdiqlanadi.

Disk-diffuzion usul yordamida olingan shtammlarning mikroblarga qarshi dori vositalarga sezuvchanlik natijalari bir-biridan farq qilganligi sababli, parallel ravishda NMIC-600 (REF) - 449055 panelida BD Phoenix bakteriologik analizatorida mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirliigi, minimal ingibitsiya konsentratsiyasini aniqlash (MIC) testini o‘tkazdik. Avtomatik mikrobiologik tizimlar bakteriyalarning tez, ishonchli va aniq identifikatsiyasi (ID) hamda klinik ahamiyatga ega ko‘pchilik turlar uchun mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlik testini (AST) tekshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Jadval 3

***P. aeruginosa* shtammlarining mikroblarga qarshi dori vositalarga nisbatan minimal ingibirlovchi konsentratsiyasi (MIK) o‘rtacha ko‘rsatkichi (mg/L).**

Antibiotik nomlari	Saqlash muddati	Mean, mg/l	CV, %	95% CI, mg/l
Amikacin (AK30)	2 oydan keyin	10,8	13,0	10,27–11,33
	3 oydan keyin	10,8	13,0	10,27–11,33
	6 oydan keyin	10,8	13,0	10,27–11,33
	12 oydan keyin	10,6	13,2	10,07–11,13
Gentamicin (CN10)	2 oydan keyin	3,0	13,3	2,85–3,15
	3 oydan keyin	3,0	13,3	2,85–3,15
	6 oydan keyin	3,0	13,3	2,85–3,15
	12 oydan keyin	3,3	15,2	3,11–3,49
Ciprofloxacin (CIP5)	2 oydan keyin	0,4	25,0	0,36–0,44
	3 oydan keyin	0,4	25,0	0,36–0,44
	6 oydan keyin	0,4	25,0	0,36–0,44
	12 oydan keyin	0,4	25,0	0,36–0,44
Levofloxacin (LEV5)	2 oydan keyin	1,2	8,3	1,16–1,24
	3 oydan keyin	1,2	8,3	1,16–1,24
	6 oydan keyin	1,2	8,3	1,16–1,24
	12 oydan keyin	1,2	8,3	1,16–1,24
Imipenem (IMI10)	2 oydan keyin	3,0	16,7	2,81–3,19
	3 oydan keyin	3,2	18,8	2,97–3,43
	6 oydan keyin	3,0	20,0	2,77–3,23
	12 oydan keyin	2,6	19,2	2,41–2,79
Meropenem (MRP10)	2 oydan keyin	2,0	30,0	1,77–2,23

	3 oydan keyin	1,9	31,6	1,67–2,13
	6 oydan keyin	2,2	27,3	1,97–2,43
	12 oydan keyin	1,7	35,3	1,47–1,93
Cefepime (FEP30)	2 oydan keyin	5,4	7,4	5,25–5,55
	3 oydan keyin	5,0	8,0	4,85–5,15
	6 oydan keyin	4,8	8,3	4,65–4,95
	12 oydan keyin	5,5	9,1	5,31–5,69
Ceftazidime (CAZ10)	2 oydan keyin	5,7	7,0	5,55–5,85
	3 oydan keyin	4,7	10,6	4,51–4,89
	6 oydan keyin	5,7	8,8	5,51–5,89
	12 oydan keyin	5,5	9,1	5,31–5,69
Piperacillin (PIP30)	2 oydan keyin	8,0	12,5	7,62–8,38
	3 oydan keyin	8,0	12,5	7,62–8,38
	6 oydan keyin	7,9	12,7	7,52–8,28
	12 oydan keyin	8,4	13,1	7,98–8,82
Piperacillin/tazobactam (TZP36)	2 oydan keyin	4,0	0,0	4,00–4,00
	3 oydan keyin	4,0	0,0	4,00–4,00
	6 oydan keyin	4,0	0,0	4,00–4,00
	12 oydan keyin	4,0	0,0	4,00–4,00

Eslatma: Ma'lumotlar o'rtacha qiymat (Mean) ± standart og'ish ko'rinishida taqdim etilgan. Variatsiya koeffitsiyenti (CV, %) quyidagi formula bo'yicha hisoblandi: $CV = SD/Mean \times 100$. 95 % ishonch oralig'i (95% CI) quyidagi formula asosida hisoblandi: $Mean \pm t \times SD/\sqrt{n}$ ($t = 2,048$; $df = 28$).

MIK o'rtacha qiymatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tekshirilgan mikroblarga qarshi dori vositalarning aksariyati — Amikacin (AK30), Gentamicin (CN10), Levofloxacin (LEV5), Cefepime (FEP30) va Ceftazidime (CAZ10) uchun MIK ko'rsatkichlari butun kuzatuv davri davomida turg'un saqlanib qolgan. Saqlash muddatlari bo'yicha o'rtacha qiymatlarning tebranishlari minimal bo'lib, ularning o'sish yoki pasayishni ko'rsatmaydi, bu dori faolligining degradatsiyasi yoki *P. aeruginosa* nazorat shtammlarining sezgirliги o'zgarmasligini ko'rsatadi. Ko'pchilik preparatlar uchun variatsiya koeffitsiyenti pastdan o'rtacha darajagacha bo'lgan diapazonda joylashgan. Eng past o'zgaruvchanlik Levofloxacin (LEV5) va Sefalosporinlar guruhi preparatlari uchun qayd etilgan bo'lib, bunda CV qiymatlari 10 % dan oshmaydi. Bu MIK o'lchovlarining yuqori darajadagi takrorlanuvchanligini tasdiqlaydi. Aminoglikozidlar — Amikacin (AK30) va Gentamicin (CN10) uchun variatsiya koeffitsiyenti biroz yuqori bo'lsa-da, biologik tadqiqotlar uchun ruxsat etilgan chegaralarda qoladi va usulning ishonchliligi pasayganini ko'rsatmaydi.

Ciprofloxacin (CIP5) va Meropenem (MRP10) kabi MIK mutlaq qiymatlari past bo'lgan preparatlar uchun variatsiya koeffitsiyentining nisbatan yuqori qiymatlari (25–35 % gacha) kuzatiladi. Bu holat usulning beqarorligi bilan emas, balki ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlari kichik bo'lganida nisbiy o'zgaruvchanlik matematik jihatdan hisoblash xususiyatlari, shuningdek *P. aeruginosa* shtammlar populyatsiyasining biologik notekisligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, ushbu preparatlar uchun 95 % ishonch oralig'lari tor bo'lib, saqlash muddatlari bo'yicha o'zaro mos keladi.

95 % ishonch oralig'larini tahlil qilish barcha tekshirilgan mikroblarga qarshi dori vositalar bo'yicha 12 oylik kuzatuv davomida ularning sezilarli darajada o'z-aro mos kelishini ko'rsatadi. Ishonch oralig'larining siljimasligi va kengliklarining o'z-aro taqqoslanadigan bo'lishi saqlash muddatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjud emasligini tasdiqlaydi hamda olingan natijalarning barqarorligini ko'rsatadi.

Piperacillin/tazobactam (TZP36) kombinatsiyasi bo'yicha olingan ma'lumotlar alohida e'tiborga loyiqdir, ushbu preparat uchun MIK qiymatlari barcha saqlash muddatlarida o'zgarmagan. Bu holat variatsiya koeffitsiyentining nolga teng qiymatlari va ishonch oralig'larining to'liq mos

kelishi bilan ifodalanadi. Bu esa *P. aeruginosa* nazorat shtammlarining mazkur preparatga bo‘lgan javob reaksiyasining yuqori darajadagi bir xilligi hamda MIKni aniqlash usulining barqarorligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan ma’lumotlar *P. aeruginosa* ga nisbatan antimikrob preparatlarning minimal ingibitsiya qiluvchi konsentratsiyalarini disk-diffuzion usulda aniqlash kamida 12 oy davomida nazorat materialini saqlash sharoitida takrorlanuvchan va statistik jihatdan barqaror natijalarni ta’minlashini ko‘rsatadi. Aniqlangan ko‘rsatkichlar tebranishlari biologik xususiyatlarga ega bo‘lib, mikroorganizmlarning sezuvchanligini talqin qilishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Shunday qilib, olingan natijalar mikroblarga qarshi dori vositalarning aksariyati uchun minimal ingibitsiya qiluvchi konsentratsiya qiymatlari past yoki o‘rtacha darajadagi o‘zgaruvchanlikka ($CV < 20\%$) ega ekanligini ko‘rsatadi, bu esa usulning yaxshi takrorlanuvchanligini tasdiqlaydi. Ciprofloxacin (CIP5) va Meropenem (MRP10) kabi ayrim preparatlar uchun qayd etilgan yuqoriroq CV qiymatlari ko‘rsatkichlarning mutlaq darajasi pastligi hamda shtammlarning biologik o‘zgaruvchanligi bilan izohlanadi. Saqlash muddatlari bo‘yicha 95% ishonch oralig‘larining o‘zaro mos kelishi natijalarda statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar mavjud emasligini va usulning 12 oy davomida barqarorligini tasdiqlaydi.

Keyingi bosqichda *P. aeruginosa* shtammlarining mikroblarga qarshi dori vositalarga rezistentlik ko‘rsatkichlari saqlash davri mobaynida xususiyatlarining barqarorligini baholash maqsadida tahlil qilindi.

Jadval 4

***P. aeruginosa* shtammlarining uchun mikroblarga qarshi dori vositalarga sezgirlik testi natijalari NMIC-600 BD Phoenix paneli yordamida turg‘unligi xususiyatlarini baholash tahlili**

Antibiotik nomlari	Saqlash muddati	Mean	CV, %	95% CI
Amikacin (AK30)	2 oydan keyin	10,3	57,3	8,1–12,5
	3 oydan keyin	10,3	57,3	8,1–12,5
	6 oydan keyin	10,3	57,3	8,1–12,5
	12 oydan keyin	7,1	69,0	5,2–9,0
Gentamicin (CN10)	2 oydan keyin	17,2	44,8	14,3–20,1
	3 oydan keyin	17,2	44,8	14,3–20,1
	6 oydan keyin	17,2	44,8	14,3–20,1
	12 oydan keyin	21,4	36,4	18,4–24,4
Ciprofloxacin (CIP5)	2 oydan keyin	20,7	40,6	17,5–23,9
	3 oydan keyin	20,7	40,6	17,5–23,9
	6 oydan keyin	20,7	40,6	17,5–23,9
	12 oydan keyin	25,0	32,8	21,9–28,1
Levofloxacin (LEV5)	2 oydan keyin	31,0	32,9	27,1–34,9
	3 oydan keyin	31,0	32,9	27,1–34,9
	6 oydan keyin	31,0	32,9	27,1–34,9
	12 oydan keyin	35,7	25,5	32,2–39,2
Imipenem (IMI10)	2 oydan keyin	20,7	40,1	17,6–23,8
	3 oydan keyin	27,6	34,8	23,9–31,3
	6 oydan keyin	24,1	37,3	20,7–27,5
	12 oydan keyin	17,9	40,2	15,2–20,6
Meropenem (MRP10)	2 oydan keyin	20,7	40,6	17,5–23,9
	3 oydan keyin	20,7	40,1	17,6–23,8
	6 oydan keyin	24,1	37,3	20,7–27,5
	12 oydan keyin	17,9	40,2	15,2–20,6
Cefepime (FEP30)	2 oydan keyin	27,6	34,8	23,9–31,3

	3 oydan keyin	20,7	40,1	17,6–23,8
	6 oydan keyin	20,7	40,1	17,6–23,8
	12 oydan keyin	32,1	27,4	28,7–35,5
Ceftazidime (CAZ10)	2 oydan keyin	34,5	30,7	30,5–38,5
	3 oydan keyin	20,7	39,6	17,6–23,8
	6 oydan keyin	31,0	32,6	27,2–34,8
	12 oydan keyin	39,3	23,4	35,8–42,8
Piperacillin (PIP30)	2 oydan keyin	17,2	44,8	14,3–20,1
	3 oydan keyin	20,7	40,6	17,5–23,9
	6 oydan keyin	17,2	44,8	14,3–20,1
	12 oydan keyin	21,4	36,4	18,4–24,4
Piperacillin/tazobactam (TZP36)	2 oydan keyin	17,2	44,8	14,3–20,1
	3 oydan keyin	20,7	40,6	17,5–23,9
	6 oydan keyin	17,2	44,8	14,3–20,1
	12 oydan keyin	21,4	36,4	18,4–24,4

Eslatma: Ma'lumotlar o'rtacha qiymat (Mean) ± standart og'ish ko'rinishida taqdim etilgan. Variatsiya koeffitsiyenti (CV, %) quyidagi formula bo'yicha hisoblandi: $CV = SD/Mean \times 100$. 95 % ishonch oralig'i (95% CI) quyidagi formula asosida hisoblandi: $Mean \pm t \times SD/\sqrt{n}$ ($t = 2,048$; $df = 28$).

O'rtacha qiymatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tekshirilgan mikroblarga qarshi dori vositalarning aksariyati uchun sezuvchanlik–rezistentlik ko'rsatkichlarida kuzatuv davomida yo'naltirilgan o'zgarishlar aniqlanmadi. Aminoglikozidlar — Amikacin (AK30) va Gentamicin (CN10), shuningdek ftorxinolonlar — Ciprofloxacin (CIP5) va Levofloxacin (LEV5) uchun o'rtacha qiymatlar (Mean) taqqoslanadigan diapazonlarda tebranadi. Shu bilan birga, saqlashning 12-oyiga kelib Gentamicin (CN10), Ciprofloxacin (CIP5) va Levofloxacin (LEV5) bo'yicha o'rtacha qiymatlarda biroz oshish kuzatiladi. Biroq, ushbu o'zgarishlar tegishli ishonch oralig'larini buzmaydi va saqlash muddatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjud emasligini ko'rsatadi.

Ko'pchilik mikroblarga qarshi dori vositalari uchun variatsiya koeffitsiyenti (CV) yuqori bo'lib, ba'zi hollarda 40–50 % gacha yetadi, bu *P. aeruginosa* shtammlarida sezuvchanlikning kuchli biologik notekisligini bildiradi. Eng yuqori CV qiymatlari Amikacin (AK30) uchun qayd etilgan, ayniqsa saqlashning 12-oyida, bu esa individual sezuvchanlik ko'rsatkichlarining keng tarqalganligini aks ettiradi. Sefalosporinlar — Cefepime (FEP30) va Ceftazidime (CAZ10) uchun variatsiya koeffitsiyenti pastroq bo'lib, ayniqsa saqlashning oxirgi muddatlarida, bu shtamlarning ushbu guruhdagi preparatlariga bir xil reaksiyasini ko'rsatadi.

Karbapenemlar — Imipenem (IMI10) va Meropenem (MRP10) bo'yicha tahlil o'rtacha sezuvchanlik ko'rsatkichlarining biroz tebranishini ko'rsatadi. Shunga qaramay, CV qiymatlari saqlash muddatlari bo'yicha taqqoslanadigan darajada qoladi va ishonch oralig'i bir-biriga to'g'ri keladi, bu esa sezgirlikni aniqlash natijalariga saqlash muddatining tizimli ta'siri yo'qligini ko'rsatadi.

Piperacillin/tazobactam (TZP36) kombinatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar alohida e'tiborga loyiqdir, buning uchun sezgirlik ko'rsatkichlari Piperacillin (PIP30) bilan taqqoslanadigan aniq o'zgaruvchanlikni namoyish etadi, bu esa o'rganilayotgan *P. aeruginosa* shtamlari populyatsiyasining biologik geterogenligini aks ettiradi. Shu bilan birga, 95 % ishonch oralig'larining saqlash muddatlari bo'yicha mos kelishi ushbu kombinatsiya uchun sezuvchanlikni aniqlash usulining barqarorligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, keltirilgan jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, *P. aeruginosa* shtamlarining sezuvchanlik ko'rsatkichlaridagi yuqori o'zgarishlar asosan mikroorganizmlarning biologik xususiyatlari bilan izohlanadi, analitik usulning barqarorligi pasaygani bilan bog'liq emas. Saqlash muddatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjud emasligi, ishonch oralig'larining mos kelishi bilan tasdiqlangan, disk-diffuzion usulning 12 oy davomida nazorat materialini saqlash sharoitida ishonchli va takrorlanuvchan natijalarni berishini ko'rsatadi.

P.aeruginosa shtammlarining sezgirlik-rezistentlik turg'unligini ikki usul bilan tahlil qilganimizdan so'ng, liofil quritish uchun va ularning turg'unligini keyinchalik o'rganish uchun 10 ta *P. aeruginosa* shtammi tanlab olindi. Liofil quritishdan so'ng, biz shtammlarning sezgirlik-rezistentlik xususiyatlarining barqarorligini uch marta (1 oy, 3 oy va 6 oydan keyin) tekshirdik (5-jadval). Olingan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda, STB paneli yaratish uchun to'liq tadqiqot davomida o'z xususiyatlarini o'zgartirmagan **oltita** shtamm tanlab olindi.

Xulosa: STB dasturi har bir alohida test punktida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida texnik va metodologik muammolarni hal qilish uchun "hamkorlikda tekshirish" o'tkazish imkonini beradi, shuningdek, diagnostika xizmatlarini ko'rsatuvchi turli xizmatlar o'rtasida natijalarning solishtirilishini ta'minlaydi. Shunga bog'liq holda, ishlab chiqilayotgan shtammlar paneli xodimlarning malakasini va o'tkazilgan tadqiqotlarni, xususan, laboratoriyalarda olib borilayotgan mikroblarga qarshi dori vositalarga sezuvchanlik darajasini tekshirish uchun turg'un xususiyatga ega bo'lishi kerak. *P. aeruginosa* shtammining turg'unligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, barcha shtammlar saqlash vaqtida o'z xususiyatlarini saqlab qolmaydi, *P. aeruginosa* shtammlarining atigi 21 foizi o'z xususiyatlarini saqlab qolgan va panel yaratish uchun tanlangan.

№ shtammlar	Amikacin AK30				Gentamicin CN 10				Ciprofloxacin CIP 5				Levofloxacin LEV 5				Imipenem IMI 10			
	D D M - 8 0 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q	D D M - 8 0 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q	D D M - 8 0 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q	D D M - 8 0 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q	D D M - 8 0 ⁰ C	DD M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q
0462	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	R	R	R	R	S	S	S	S
0681	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
1010	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
1011	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	R	R	R	R	R	R	S	S	S	S
2367	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
2379	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
2559	S	S	S	S	R	R	R	R	S	S	S	S	R	R	R	R	R	R	R	R
2572	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
2632	S	S	S	S	S	S	S	R	S	S	S	R	S	R	S	R	S	R	S	S
2899	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
№ shtammlar	Meropenem MRP10				Cefepime FEP 30				Ceftazidime CAZ 10				Piperacillin PIP 30				Piperacillin tazobactam TZP 36			
	D D M - 8 0 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q	D D M - 8 0 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q	D D M - 8 0 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q	D D M - 8 0 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q	DD M - 80 ⁰ C	D D M L Q	M IK - 8 0 ⁰ C	M IK L Q
0462	S	S	S	S	R	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
0681	S	S	S	S	S	R	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
1010	S	S	S	S	S	R	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
1011	S	S	S	S	R	R	S	S	R	R	R	R	R	R	S	S	S	S	S	S

2367	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
2379	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S
2559	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
2572	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
2632	S	S	S	S	S	R	S	R	S	R	S	R	S	R	S	R	S	R	S	R
2899	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S	S

IQTIBOSLAR | ЧОШКИ | REFERENCES:

- 1.Макарова Д.В., Миткова С.В., Шубина Ю.Ф. Эффективность внедрения системы менеджмента качества в централизованной клинико-диагностической лаборатории. Клиническая лабораторная диагностика. 2014;(9):100–104
- 2.Менеджмент качества в медицинской лаборатории. Лабораторная служба. 2018;2:101–106
- 3.Татарников М.А. Зачем нужна система менеджмента качества в медицинской организации? Качество медицинской помощи. 2017.
- 4.Assegehegn G, Brito-de la Fuente E, Franco JM, Gallegos C. The importance of understanding the freezing step and its impact on freeze-drying process performance. J Pharm Sci. 2019;108(4):1378–95.
- 5.Beyanga M. et al. Implementation of the laboratory quality management system (ISO 15189). African Journal of Laboratory Medicine, 2018.
- 6.De la Salle B, Meijer P, Thomas A, Simundic AM. External quality assessment in laboratory medicine – current challenges and future trends. Biochem Med. 2017;27:19–22.
- 7.Gaidhani KA, Harwalkar M, Bhambere D, Nirgude PS. Lyophilization/freeze drying — a review. WJPR. 2015;4(8):516–43
- 8.Jones GRD, Albarede S, Kessler D, MacKenzie F, Mammen J, Pedersen M, et al. Analytical performance specifications for external quality assessment – definitions and descriptions. Clin Chem Lab Med. 2017;55:949–955.,9
- 9.Kasaw Adane, Mekonnen Girma , Teshiwal Deress/// How Does ISO 15189 Laboratory Accreditation Support the Delivery of Healthcare in Ethiopia? A Systematic Review/// 2018; 29(2):259-264
10. Ricós C, Fernández-Calle P, Perich C, Sandberg S. External quality control in laboratory medicine: Progresses and future. Adv Lab Med. 2022;3(3):221–223
- 11.Wang GQ, Pu J, Yu XQ, Xia YJ, Ai LZ. Influence of freezing temperature before freeze-drying on the viability of various Lactobacillus plantarum strains. J.Dairy Sci. 2020;103(4):3066–75

БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ

JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000